

Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'gli*Alfraganus Universiteti Xalqaro turizm menejmenti kafedrası katta o'qituvchisi**E-mail: d.tilovmurodov@afu.uz ORCID: 0000-0001-5645-822X*

O'ZBEKISTONDA FAOL TURIZM YO'NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH- NING INTEGRAL MODEL

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda faol turizm yo'nalishlarini rivojlantirishning integral modeli ishlab chiqilgan va uning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik, iqtisodiy, infratuzilmaviy, institutsional, ekologik va marketing omillari tizimli tahlil qilinib, ularning o'zaro integratsiyasi asosida hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlari taklif etilgan. Tadqiqotda faol turizmni boshqarish tizimini takomillashtirish, hududiy turizmni barqaror rivojlantirish va mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: faol turizm, integral model, turistik yo'nalishlar, barqaror turizm, turizm infratuzilmasi, turistik salohiyat, turizmni boshqarish, turistik mahsulot.

ИНТЕГРАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ НАПРАВЛЕНИЙ АКТИВНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В статье разработана интегральная модель развития направлений активного туризма в Узбекистане и раскрыты её теоретические и практические основы. Проведен системный анализ природно-географических, экономических, инфраструктурных, институциональных, экологических и маркетинговых факторов, влияющих на развитие активного туризма. На основе их интеграции предложены механизмы эффективного использования туристского потенциала регионов. В ходе исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на совершенствование системы управления активным туризмом, обеспечение устойчивого развития регионального туризма и повышение конкурентоспособности страны на международном туристском рынке.

Ключевые слова: активный туризм, интегральная модель, туристские направления, устойчивый туризм, туристская инфраструктура, туристский потенциал, управление туризмом, туристский продукт.

AN INTEGRATED MODEL FOR DEVELOPING ACTIVE TOURISM DESTI- NATIONS IN UZBEKISTAN

Abstract: This article develops an integrated model for the development of active tourism destinations in Uzbekistan and presents its theoretical and practical

foundations. A systematic analysis is conducted of the natural-geographical, economic, infrastructural, institutional, environmental, and marketing factors influencing the development of active tourism. Based on the integration of these factors, mechanisms for the effective utilization of regional tourism potential are proposed. The study also provides scientific and practical recommendations for improving the active tourism management system, ensuring the sustainable development of regional tourism, and enhancing the country's competitiveness in the international tourism market.

Keywords: active tourism, integrated model, tourism destinations, sustainable tourism, tourism infrastructure, tourism potential, tourism management, tourism product.

Kirish. Jahon miqyosida turizm sohasi iqtisodiyotning eng jadal rivojlantayotgan tarmoqlaridan biri sifatida destinatsiyalarning yalpi ichki mahsuloti, bandlik darajasi, investitsion jozibadorligi hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda turistlarning sayohat motivlari va iste'mol xulq-atvorida kuzatilayotgan o'zgarishlar natijasida tabiat qo'ynida dam olish, jismoniy faollikni talab etuvchi, ekologik jihatdan mas'uliyatli hamda autentik tajribalarni taqdim etuvchi faol turizm yo'nalishlariga bo'lgan talab izchil ortib bormoqda. Ushbu tendensiya faol turizmni turizm industriyasining yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan va hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. O'zbekiston tabiiy-landshaft resurslari, tog' tizmalari, cho'l va o'rmon hududlari, daryo va ko'llari, qo'riqlanadigan tabiiy hududlari hamda boy tarixiy-madaniy merosi bilan faol turizmning trekking, hiking, alpinizm, qoyaga chiqish, speleoturizm, rafting, veloturizm, ot sporti, safari va boshqa

yo'nalishlarini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Mamlakatda turizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, transport va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, vizani liberallashtirish, raqamli xizmatlarni joriy etish hamda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar faol turizmni rivojlantirish uchun qulay institutsional muhitni shakllantirmoqda [1,2].

Shu bilan birga, mavjud salohiyatdan to'liq va samarali foydalanishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar ham mavjud. Xususan, faol turizm yo'nalishlari yagona konseptual yondashuv asosida rivojlantirilmaganligi, turistik marshrutlarning ilmiy asoslangan tasnifi va integratsiyasi yetarli darajada shakllanmaganligi, hududlar kesimida infratuzilma va servis sifati o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligi, xavfsizlik standartlari va risklarni boshqarish mexanizmlarining to'liq yo'lga qo'yilmaganligi, malakali gid-instruktorlar va mutaxassislar yetishmasligi, marketing va raqamli platformalardan foydalanish samaradorligining pastligi faol

turizmning raqobatbardoshligini cheklayotgan asosiy omillar hisoblanadi. Natijada, faol turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, turistik oqimlarni hududlar bo'yicha muvozanatli taqsimlash hamda turizm eksporti hajmini oshirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti.

Mazkur muammolarni bartaraf etish faol turizmni alohida elementlar asosida emas, balki tabiiy resurslar, infratuzilma, transport, xizmatlar, xavfsizlik, ekologik barqarorlik, raqamli texnologiyalar, marketing va institutsional boshqaruvning o'zaro integratsiyasiga asoslangan yaxlit tizim sifatida rivojlantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, faol turizmni rivojlantirishning integral modelini ishlab chiqish hududlarning turistik salohiyatidan kompleks foydalanish, manfaatdor tomonlar hamkorligini kuchaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va turizm xizmatlari sifatini yaxshilashning muhim ilmiy-amaliy vositasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida faol turizmni rivojlantirish jarayonlarini qamrab olib, unda faol turizm yo'nalishlarining resurs salohiyati, infratuzilmaviy ta'minoti, institutsional boshqaruvi, ekologik barqarorligi, marketing faoliyati va hududiy rivojlanish omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimlashtirilib, ularning integratsiyasi asosida hududlar uchun qo'llash mumkin bo'lgan integral model taklif etiladi. O'zbekistonda faol turizm

yo'nalishlarini rivojlantirishning integral modelini ishlab chiqish hamda uning asosida faol turizmni boshqarish tizimini takomillashtirish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va mamlakatning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Shunday qilib, tadqiqotning ilmiy yangiligi faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi iqtisodiy, tabiiy-geografik, infratuzilmaviy, institutsional, ekologik va marketing omillarini yagona integral model doirasida tizimlashtirish hamda ularning o'zaro uyg'unligini ta'minlovchi konseptual yondashuvni ishlab chiqish bilan tavsiflanadi. Mazkur yondashuv faol turizmni boshqarish samaradorligini oshirish, hududlarning turistik salohiyatidan oqilona foydalanish va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Faol turizm (*Active Tourism*) zamonaviy turizm industriyasining jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, turistlarning jismoniy faolligi, tabiiy muhit bilan bevosita o'zaro aloqasi, rekreatsion ehtiyojlarini qondirish hamda mahalliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi kompleks faoliyat sifatida e'tirof etiladi. So'nggi yillarda ekologik muammolar, sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishning ortishi, turistlarning individual tajriba va autentik marshrutlarga bo'lgan talabi faol

turizmni dunyo turizm bozorining istiqbolli segmentiga aylantirdi. UN Tourism ma'lumotlariga ko'ra, faol va tabiatga asoslangan turizm yo'nalishlari xalqaro turizmning eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, ushbu yo'nalishlar hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, yangi ish o'rinlari yaratish, xizmatlar eksportini kengaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda faol turizm tushunchasi turli yondashuvlar asosida talqin qilingan. Faol turizmning nazariy asoslarini shakllantirishga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri Buckley (2016) bo'lib, u faol turizmni turistlarning jismoniy faolligi, tabiiy resurslardan foydalanish va xavfsizlikni boshqarish tizimiga asoslangan turizm turi sifatida tavsiflaydi [3]. Olimning fikriga ko'ra, faol turizmning iqtisodiy samaradorligi tabiiy resurslarning sifati, infratuzilmaning rivojlanganligi, xizmat ko'rsatish darajasi va boshqaruv mexanizmlarining uyg'unligiga bog'liq. Buckley shuningdek, faol turizmni rivojlantirishda ekologik cheklovlar va xavfsizlik standartlariga qat'iy rioya etish uzoq muddatli barqaror rivojlanishning asosiy sharti ekanligini ta'kidlaydi.

Swarbrooke, Beard, Leckie va Pomfret (2023) faol turizmni turistlarning tavakkalchilikni qabul qilish darajasi, jismoniy tayyorgarligi va yangi taassurotlarga intilishi bilan bog'liq bo'lgan maxsus turizm segmenti sifatida baholaydilar. Ularning tadqiqotlarida faol turizm mahsulotlarini shakllantirishda marshrutlarning

murakkabligi, xizmat sifati, xavfsizlik, instruktorlar malakasi va marketing strategiyalarining o'zaro bog'liqligi ilmiy asoslangan [4]. Mazkur yondashuv faol turizmning muvaffaqiyati faqat tabiiy resurslar mavjudligi bilan emas, balki xizmatlarni kompleks tashkil etish darajasi bilan belgilanishini ko'rsatadi. Weaver (2016) faol turizmni barqaror turizm konsepsiyasining tarkibiy qismi sifatida baholab, ushbu yo'nalishni rivojlantirishda ekologik muvozanatni saqlash, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish muhimligini asoslab beradi. Uning fikricha, faol turizm faqat iqtisodiy daromad manbai emas, balki tabiiy hududlarni asrash va ulardan oqilona foydalanish vositasi ham hisoblanadi. Shu sababli faol turizmni rejalashtirishda ekologik yuklama, tashrif buyuruvchilar sig'imi va resurslardan foydalanish chegaralari ilmiy asosda belgilanishi lozim. Turizm destinatsiyalarining raqobatbardoshligini baholash bo'yicha Crouch va Ritchie (2019) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual model bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda. Mazkur modelga ko'ra, destinatsiyaning raqobatbardoshligi tabiiy resurslar, yaratilgan resurslar, boshqaruv tizimi, marketing, davlat siyosati va qo'llab-quvvatlovchi omillar integratsiyasi orqali shakllanadi. Mualliflar turizmni alohida elementlar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqishni taklif etadilar. Ushbu yondashuv faol turizmni rivojlantirishning integral modelini

ishlab chiqish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Dwyer va Kim (2023) tomonidan taklif etilgan destinatsiyalar raqobatbardoshligi modeli esa turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi resurslar, infratuzilma, boshqaruv, innovatsiyalar va talab omillarining o'zaro ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi. Mualliflar turizmni rivojlantirishda tabiiy resurslarning o'zi yetarli emasligini, ulardan samarali foydalanish uchun transport tizimi, xizmatlar sifati, marketing va davlat boshqaruvi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar. Mazkur ilmiy qarashlar O'zbekiston sharoitida faol turizm yo'nalishlarini rivojlantirish uchun ham dolzarb hisoblanadi [5]. Faol turizmni boshqarishda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning roli bo'yicha Gretzel, Sigala, Xiang va Koo (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ularning ilmiy ishlari "Smart Tourism" konsepsiyasining shakllanishiga asos bo'lib, sun'iy intellekt, geoinformatsion tizimlar (GIS), mobil ilovalar, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va raqamli marketing vositalaridan foydalanish turistlar tajribasini yaxshilashi, xizmatlar sifatini oshirishi va destinatsiyalarni samarali boshqarishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Ayniqsa, faol turizm marshrutlarini raqamlashtirish, onlayn bronlash tizimlarini joriy etish, GPS navigatsiyasi hamda xavfsizlik monitoringi tizimlari faol turizmni boshqarishning zamonaviy vositalari sifatida e'tirof etiladi.

Adventure Travel Trade Association (ATTA) tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda faol va sarguzasht turizmi jahon turizm bozorining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri sifatida baholanadi. Tashkilot ekspertlarining fikricha, turistlarning tabiat qo'ynida dam olish, ekstremal va rekreatsion faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan talabi yil sayin ortib bormoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sifati, xavfsizlik, sertifikatlash, malakali gid-instruktorlar tayyorlash va xalqaro standartlarga muvofiqlik ushbu yo'nalishning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

UN Tourism va World Travel & Tourism Council (WTTC) hisobotlarida ham faol turizmning iqtisodiy samaradorligi alohida ta'kidlanadi. Mazkur tashkilotlarning tahlillariga ko'ra, faol turizm hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, chekka hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznesni rivojlantirish hamda turizm eksportini oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, faol turizmni rivojlantirish ekologik barqarorlik, transport infratuzilmasi, xavfsizlik va investitsion muhit bilan bevosita bog'liq ekanligi qayd etiladi. So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda faol turizmni baholashda tizimli va integral yondashuvlardan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda. Chunki mavjud tadqiqotlarning aksariyatida tabiiy resurslar, marketing, infratuzilma yoki ekologik omillar alohida o'rganilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro integratsiyasini aks ettiruvchi kompleks

ilmiy model yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda faol turizmni boshqarishning iqtisodiy, ekologik, institutsional va

innovatsion omillarini yagona tizimga birlashtiruvchi konseptual yondashuvlar soni cheklangan (1-jadval).

1-jadval
Faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar⁴

Omillar	Asosiy elementlar	Kutilayotgan natija
Tabiiy resurslar	Tog'lar, g'orlar, daryolar, qo'riqxonalar	Turistik jozibadorlik
Infratuzilma	Yo'llar, mehmonxonalar, kempinglar	Xizmat sifati
Marketing	Brending, reklama, raqamli platformalar	Turistlar oqimi
Xavfsizlik	Risklarni boshqarish, ISO standartlari	Turistlar ishonchi
Raqamli texnologiyalar	GIS, mobil ilovalar, AI	Samarali boshqaruv
Ekologik barqarorlik	Resurslardan oqilona foydalanish	Barqaror rivojlanish

Mamlakatimizda turizm sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda hududlarning turistik salohiyatini baholash, turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotlarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va marketing faoliyatini kuchaytirish orqali turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Biroq mavjud ilmiy ishlarda faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ko'pincha alohida yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lib, ularning o'zaro integratsiyasi asosida

kompleks boshqaruv modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, faol turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi faqat tabiiy resurslar mavjudligi bilan emas, balki infratuzilma, marketing, xavfsizlik, raqamli texnologiyalar, ekologik barqarorlik va davlat boshqaruvi mexanizmlarining uyg'unligi bilan belgilanadi. Shvetsariya, Yangi Zelandiya, Kanada, Norvegiya va Avstraliya tajribalarida aynan integratsiyalashgan boshqaruv modeli faol turizmning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili sifatida e'tirof etiladi.


O'zbekiston sharoitida faol turizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda hududlarning resurs salohiyati va iqtisodiy imkoniyatlari tahlil

⁴ Adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi.

qilingan bo'lsa-da, tabiiy resurslar, turizm infratuzilmasi, xizmatlar sifati, marketing, xavfsizlik va raqamli texnologiyalarni yagona integral tizim sifatida baholashga oid ilmiy ishlanmalar yetarli emas. Mazkur holat faol turizmni rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqishni dolzarb ilmiy masalaga aylantiradi. Shu nuqtai nazaridan, O'zbekiston sharoitida faol turizmni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish,

hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlar asosida tashkil etish hamda barcha omillarni yagona integral model asosida boshqarish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur ilmiy bo'shliqni bartaraf etish maqsadida ushbu tadqiqotda faol turizm yo'nalishlarini rivojlantirishning integral modeli taklif etiladi (1-rasm).

O'ZBEKISTONDA FAOL TURIZM YO'NALISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL MODELII



1-rasm. O'zbekistonda faol turizm yo'nalishlarini rivojlantirishning integral modeli⁵

Faol turizmni rivojlantirish zamonaviy turizm siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning

samaradorligi ko'plab iqtisodiy, tabiiy, institutsional va boshqaruv omillarining o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Shu sababli

⁵ Muallif ishlanmasi.

mazkur tadqiqotda faol turizmni rivojlantirishning integral modeli ishlab chiqildi. Mazkur model tizimli (system approach) va integratsion (integrated approach) yondashuvlarga asoslangan bo'lib, faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni yagona boshqaruv mexanizmiga birlashtiradi. Taklif etilgan modelning asosiy g'oyasi shundan iboratki, faol turizmni rivojlantirish faqat tabiiy resurslarning mavjudligi bilan emas, balki infratuzilma, marketing, xavfsizlik, davlat siyosati, innovatsiyalar va ekologik barqarorlikning o'zaro uyg'un faoliyati natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun modelda barcha omillar o'zaro bog'langan yagona tizim sifatida ko'rib chiqilgan. Model beshta asosiy tarkibiy blokdan iborat.

Birinchi blok tabiiy resurslar salohiyati (X_1) hisoblanadi. Mazkur blok faol turizmni rivojlantirishning boshlang'ich omili sifatida qaraladi. Unga tog' tizmalari, daryolar, ko'llar, g'orlar, milliy bog'lar, biosfera qo'riqxonalar, noyob landshaftlar hamda biologik xilma-xillik kiradi. Aynan ushbu resurslar faol turizm mahsulotlarini shakllantirishning tabiiy asosini yaratadi. Biroq tabiiy resurslarning mavjudligi o'z-o'zidan yuqori turistik oqimni ta'minlamaydi. Ularni iqtisodiy resursga aylantirish uchun boshqa omillar bilan integratsiyalash zarur.

Ikkinchi blok turizm infratuzilmasi (X_2) bo'lib, u transport tarmoqlari, avtomobil yo'llari, mehmonxonalar, kempinglar, glampinglar, sanitariya obyektlari, axborot markazlari, navigatsiya tizimlari va boshqa servis

xizmatlarini qamrab oladi. Rivojlangan infratuzilma turistlarning xavfsiz va qulay harakatlanishini ta'minlaydi, sayohat xarajatlarini kamaytiradi hamda turizm xizmatlari sifatini oshiradi.

Uchinchi blok marketing va raqamli texnologiyalar (X_3) hisoblanadi. Hozirgi sharoitda faol turizm mahsulotlarini xalqaro bozorda muvaffaqiyatli ilgari surish zamonaviy marketing vositalarisiz mumkin emas. Ushbu blok destination branding, raqamli marketing, sun'iy intellekt, GIS texnologiyalari, onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Mazkur omillar turistlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda destinatsiyaning raqobatbardoshligini oshiradi.

To'rtinchi blok xavfsizlik va ekologik barqarorlik (X_4) hisoblanadi. Faol turizmning o'ziga xos xususiyati turistlarning tabiat qo'ynida, ayrim hollarda yuqori xavf darajasiga ega hududlarda faoliyat yuritishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli xavfsizlikni boshqarish, risklarni baholash, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, ISO 21101 standartlarini joriy etish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish modelning ajralmas qismi hisoblanadi.

Beshinchi blok institutsional qo'llab-quvvatlash (X_5) bo'lib, u davlat siyosati, normativ-huquqiy baza, investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, ilmiy tadqiqotlar, kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Ushbu omil faol turizmning barcha tarkibiy qismlarini yagona boshqaruv tizimiga birlashtiradi.

Modelning markazida faol turizmni rivojlantirishning integral modeli (Y) joylashgan bo'lib, u yuqoridagi barcha omillarning sinergetik ta'siri natijasida shakllanadi. Ushbu modelning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

- *faol turizm yo'nalishlarining raqobatbardoshligini oshirish;*
- *turistlar oqimini ko'paytirish;*
- *turizm eksporti hajmini kengaytirish;*
- *yangi ish o'rinlarini yaratish;*
- *hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish;*
- *ekologik barqarorlikni ta'minlash;*
- *mahalliy aholining daromadlarini oshirish.*

Taklif etilgan integral modelning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ilk bor yagona tizim sifatida integratsiyalashtirildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi konseptual jihatdan asoslandi. Model nafaqat faol turizmning rivojlanish mexanizmlarini tushuntiradi, balki hududlar kesimida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, investitsiya ustuvorliklarini belgilash va turizm siyosatini takomillashtirish uchun metodik asos vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, modelning o'ziga xos jihati shundaki, u statik emas, balki dinamik xususiyatga ega. Ya'ni, modelning har bir elementi o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ulardan biridagi o'zgarish qolgan omillarga ham

bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli faol turizmni boshqarishda alohida omillarni emas, balki ularning kompleks integratsiyasini ta'minlash yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Taklif etilgan integral model faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini aks ettiradi. Modelga ko'ra, tabiiy resurslar, turizm infratuzilmasi, marketing va raqamli texnologiyalar, xavfsizlik hamda ekologik barqarorlik, shuningdek institutsional qo'llab-quvvatlash faol turizm rivojlanishining asosiy determinantlari hisoblanadi. Ushbu omillar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ularning o'zaro integratsiyasi faol turizm yo'nalishlarining raqobatbardoshligini oshirish, turistlar oqimini ko'paytirish, turizm eksportini kengaytirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqilgan konseptual modelning nazariy asoslarini empirik jihatdan tekshirish maqsadida faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi quyidagi ilmiy gipotezalar ilgari surildi.

G1. Tabiiy resurslar salohiyati faol turizm yo'nalishlarining rivojlanishiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

G2. Turizm infratuzilmasining rivojlanganligi faol turizm xizmatlari sifatini va turistlar oqimining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

G3. *Marketing faoliyati hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish faol turizm yo'nalishlarining raqobatbardoshligini oshiradi.*

G4. *Xavfsizlik tizimi va ekologik barqarorlik faol turizm yo'nalishlarining barqaror rivojlanishiga hamda turistlar qoniqishining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*

G5. *Tabiiy resurslar, turizm infratuzilmasi, marketing va raqamli texnologiyalar, xavfsizlik hamda ekologik barqarorlik va institutsional qo'llab-quvvatlashning o'zaro integratsiyasi O'zbekistonda faol turizm yo'nalishlarini rivojlantirishning integral modelini shakllantiradi hamda uning samaradorligini oshiradi.*

Mazkur gipotezalarni tekshirish uchun tadqiqotning keyingi bosqichida tarkibiy tenglamalar modeli (SEM), PLS-SEM yoki ko'p omilli regressiya tahlili usullaridan foydalanish rejalashtirilgan. Bu yondashuv konseptual modelda taklif etilgan omillar o'rtasidagi bog'liqliklarning statistik ahamiyatini aniqlash hamda ishlab chiqilgan integral modelning ilmiy asoslanganligini empirik jihatdan tasdiqlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda faol turizm yo'nalishlarini rivojlantirishning integral modelini ishlab chiqish hamda unga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash maqsadida tizimli, kompleks va integratsion yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida dastlab ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish (Systematic Literature Review) usuli

qo'llanilib, faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi hamda ularning o'zaro bog'liqligi konseptual jihatdan asoslandi. Olingan natijalar asosida faol turizmni rivojlantirishning integral modeli ishlab chiqildi va model tarkibiga tabiiy resurslar salohiyati, turizm infratuzilmasi, marketing va raqamli texnologiyalar, xavfsizlik hamda ekologik barqarorlik, shuningdek institutsional qo'llab-quvvatlash omillari kiritildi.


Tadqiqotning empirik qismida faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni baholash maqsadida ekspert baholash va anketa so'rovi usullaridan foydalanildi. So'rovnoma besh ballik *Likert* shkalasi asosida shakllantirildi hamda respondentlarning faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha fikrlari baholandi. Respondentlar tarkibiga turizm tashkilotlari mutaxassislari, gid-instruktorlar, turistik korxonalar rahbarlari, davlat organlari vakillari, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va faol turistlar kiritildi. So'rov natijalarining ichki ishonchililigini aniqlash uchun *Cronbach's Alpha* koeffitsienti, o'zgaruvchilarning faktorial tahlilga mosligini baholash uchun *Kaiser-Meyer-Olkin* (KMO) testi hamda *Bartlett's Test of Sphericity* usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot gipotezalarini empirik jihatdan tekshirish uchun tarkibiy tenglamalar modeli *Structural Equation Modeling* (SEM) metodologiyasidan foydalanildi. SEM usuli bir vaqtning o'zida bir nechta yashirin (*latent*) va

kuzatiluvchi (*observed*) o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni baholash imkonini beradi. Mazkur usul faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sirlarni aniqlash hamda ishlab chiqilgan integral modelning statistik mosligini baholash uchun tanlandi. Ma'lumotlarni statistik qayta ishlash jarayonida **STATA** va **Microsoft Excel** dasturlaridan uzviy foydalanildi. Ushbu dasturiy vositalar deskriptiv statistika, ishonchlilik tahlili, korrelyatsion va regressiya tahlillari, SEM modeli hamda omillar o'rtasidagi bog'liqliklarni baholash imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasi. Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda faol turizm yo'nalishlarini rivojlantirishning integral modeli taklif etildi hamda model tarkibiga kiritilgan omillarning o'zaro bog'liqligi statistik va konseptual jihatdan baholandi. Tadqiqot jarayonida faol turizm resurslari, turizm infratuzilmasi, marketing va raqamli texnologiyalar, xavfsizlik hamda institutsional qo'llab-quvvatlash omillarining faol turizm rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Dastlab, tadqiqotda qo'llanilgan indikatorlarning ichki ishonchlilik darajasi Cronbach's Alpha koeffitsienti

orqali baholandi. Hisoblash natijalariga ko'ra Cronbach's Alpha koeffitsienti 0,824 ni tashkil etdi. Mazkur qiymat 0,70 dan yuqori bo'lgani sababli o'lchov shkalasi yuqori darajadagi ichki konsistentlikka ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, Composite Reliability (CR=0,891) va Average Variance Extracted (AVE=0,612) ko'rsatkichlari ham tavsiya etilgan me'yoriy qiymatlardan yuqori bo'lib, model indikatorlarining konvergent validligi ta'minlanganligini ko'rsatdi. Ushbu natijalar ishlab chiqilgan integral modelning metodologik jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Pearson korrelyatsiya tahlili natijalari (2-rasm) faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida ijobiy va o'rtacha hamda kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, faol turizm resurslari va turizm infratuzilmasi o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $r=0,72$, turizm infratuzilmasi va marketing texnologiyalari o'rtasida $r=0,64$, marketing hamda xavfsizlik tizimi o'rtasida $r=0,62$, xavfsizlik va faol turizm rivojlanishi o'rtasida esa $r=0,74$ ni tashkil etdi. Bu natijalar faol turizmni rivojlantirish jarayonida alohida omillar emas, balki ularning o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.




2-rasm. Pearson korrelyatsiyasining tahliliy indikatorlari⁶

Faol turizm omillarining o'rtacha baholari tahlili shuni ko'rsatdiki, respondentlar eng yuqori bahoni faol turizm resurslariga (4,45 ball) bergan. Ikkinchi o'rinda xavfsizlik va barqaror rivojlanish (4,31 ball), uchinchi o'rinda turizm infratuzilmasi (4,25 ball) qayd etildi. Marketing va raqamli texnologiyalar (4,18 ball) hamda institutsional qo'llab-quvvatlash (4,12 ball) nisbatan pastroq baholangan bo'lsada, ularning o'rtacha qiymatlari ham yuqori darajada ekanligi faol turizm rivojlanishida mazkur omillarning muhimligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning asosiy gipotezalari PLS-SEM konseptual modeli

asosida baholandi (3-rasm). Strukturaviy model natijalariga ko'ra faol turizm resurslarining turizm infratuzilmasiga ta'siri ijobiy bo'lib, ushbu bog'liqlik $\beta=0,244$ koeffitsient bilan ifodalandi. Turizm infratuzilmasining marketing va raqamli texnologiyalarga ta'siri $\beta=0,213$, marketing omilining xavfsizlik tizimiga ta'siri $\beta=0,188$ ni tashkil etdi. Eng yuqori ta'sir xavfsizlik va barqaror rivojlanish omilidan faol turizm rivojlanishiga kuzatilib, yo'l koeffitsienti $\beta=0,266$ ga teng bo'ldi. Institutsional qo'llab-quvvatlashning faol turizm rivojlanishiga ta'siri ham ijobiy bo'lib, $\beta=0,142$ darajasida baholandi.

⁶ Tadqiqot asosida muallif ishlanmasi.

8. PLS-SEM Structural Model (Yo'l diagrammasi)



3-rasm. PLS-SEM tahlilining konseptual asoslari⁷


Modelning izohlash darajasi $R^2=0,684$ ni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich faol turizm rivojlanishidagi o'zgarishlarning 68,4 foizi modelga kiritilgan beshta omil orqali izohlanishini anglatadi. Chin va Hair tomonidan tavsiya etilgan mezonlarga ko'ra, R^2 ning 0,67 ga yaqin qiymati modelning yuqori izohlash qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi. Bu esa ishlab chiqilgan integral modelning amaliy jihatdan ham samarali ekanligini ko'rsatadi.

SEM o'lchov modeli (4-rasm) natijalarida barcha indikatorlarning faktor

yuklamalari tavsiya etilgan minimal chegaradan yuqori ekanligi kuzatildi. Xususan, indikatorlarning *outer loading* qiymatlari 0,70–0,82 oralig'ida shakllandi. Bu esa har bir indikator tegishli latent konstruktni yetarli darajada ifodalashini ko'rsatadi. Model moslik ko'rsatkichlari ham qoniqarli natijalarni qayd etdi. Jumladan, $SRMR=0,052$, $NFI=0,916$ va $Chi-square/df=1,842$ qiymatlari strukturaviy modelning empirik ma'lumotlarga yaxshi mos kelishini tasdiqlaydi.

⁷ Tadqiqot asosida muallif ishlanmasi.

9. SEM Measurement Model (O'lchov modeli)




4-rasm. Faol turizmni rivojlantirishning latent konstruktleri va indikatorlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi SEM o'lchov modeli⁸

Regressiya tahlili (5-rasm) natijalarida bashorat qilingan qiymatlar bilan haqiqiy kuzatuvlar o'rtasida kuchli musbat bog'liqlik kuzatildi. Nuqtalarning regressiya chizig'i atrofida zich

joylashishi modelning prognozlash qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Modelning statistik ahamiyatligi $p < 0,001$ darajada tasdiqlandi.

7. Regression Plot (Bashorat qilingan vs Haqiqiy qiymatlar)



⁸ Tadqiqot asosida muallif ishlanmasi.

5-rasm. Faol turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning regressiya tahlili natijalari⁹

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ilgari surilgan G1-G5 gipotezalarning barchasi qo'llab-quvvatlanganligini ko'rsatdi. Bu esa faol turizmni rivojlantirish tabiiy resurslarning mavjudligigina emas, balki infratuzilma, marketing, xavfsizlik va institutsional boshqaruvning o'zaro integratsiyasiga bog'liqligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Taklif etilgan integral model O'zbekistonda faol turizmni strategik rejalashtirish, hududiy turizm siyosatini takomillashtirish va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshirishda amaliy metodik asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda faol turizm yo'nalishlarini rivojlantirishning integral modeli ishlab chiqildi hamda uning nazariy va amaliy jihatlari kompleks yondashuv asosida tadqiq etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, faol turizmni samarali rivojlantirish alohida omillar faoliyati bilan emas, balki tabiiy resurslar, turizm infratuzilmasi, marketing va raqamli texnologiyalar, xavfsizlik tizimi hamda institutsional qo'llab-quvvatlashning o'zaro integratsiyalashgan faoliyati orqali ta'minlanadi. Mazkur yondashuv hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, faol turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim ilmiy-metodik asos yaratadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan konseptual model va ilgari surilgan gipotezalar faol turizm rivojlanishining asosiy determinantlarini tizimli ravishda tavsiflash imkonini berdi. Ishonchlilik tahlili natijalariga ko'ra Cronbach's Alpha koeffitsientining 0,824 ga tengligi qo'llanilgan indikatorlarning yuqori ichki konsistentlikka ega ekanligini tasdiqladi. Pearson korrelyatsiya tahlili faol turizm resurslari, infratuzilma, marketing, xavfsizlik va institutsional omillar o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. PLS-SEM konseptual modeli hamda regressiya tahlili natijalari esa ushbu omillarning faol turizm rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Modelning izohlash darajasi ($R^2=0,684$) faol turizm rivojlanishidagi o'zgarishlarning asosiy qismi tanlangan omillar orqali tushuntirilishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan xulosalarni O'zbekiston sharoitida ham tasdiqladi. Shu bilan birga, tadqiqotning ilmiy yangiligi faol turizmni rivojlantirish omillarining yagona integral model asosida tizimlashtirilgani, ularning o'zaro sabab-oqibat bog'liqligi konseptual va metodologik jihatdan asoslangani hamda hududiy rivojlanish strategiyalariga moslashtirilganligi bilan izohlanadi. Taklif etilgan model davlat boshqaruvi organlari, hududiy turizm ma'muriyatlari va xususiy sektor subyektlari uchun faol turizmni

⁹ Tadqiqot asosida muallif ishlanmasi.

rejalashtirish va boshqarishda amaliy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Olingan ilmiy natijalardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududlarning tabiiy resurslari asosida faol turizm klasterlarini shakllantirish va ularni yagona hududiy boshqaruv tizimi orqali rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda har bir hududning geografik va rekreatsion xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

2. Faol turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish maqsadida tog' va cho'l hududlarida zamonaviy trekking yo'llari, velomarshrutlar, kemping va glamping maskanlari, axborot markazlari hamda navigatsiya tizimlarini bosqichma-bosqich tashkil etish tavsiya etiladi.

3. Faol turizm xavfsizlikni boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro xavfsizlik standartlari, xususan ISO 21101 talablarini joriy etish, gid-instruktorlarni sertifikatlash hamda qutqaruv va tibbiy xizmatlar bilan integratsiyalashgan xavfsizlik mexanizmlarini yaratish zarur.

4. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hamda faol turizm loyihalariga xususiy

investitsiyalarni jalb etish uchun soliq va moliyaviy rag'batlantirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

5. Faol turizmni barqaror rivojlantirish monitoringi uchun Integral Faol Turizm Indeksi (*Active Tourism Integral Index*)ni joriy etish taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan integral model O'zbekistonda faol turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, hududiy turizm siyosatini takomillashtirish, turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va turizm eksportini kengaytirishga xizmat qiladigan ilmiy-amaliy mexanizm sifatida baholanadi. Mazkur modelni amaliyotga joriy etish orqali faol turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy aholi bandligini ta'minlash va hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish imkoniyati kengayadi. Shu jihatdan tadqiqot natijalari O'zbekistonning uzoq muddatli turizm strategiyasini shakllantirish va faol turizmni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xalilov Sirojiddin Sherari o'g'li. (2025). TURIZMNI O'RTA ISTIQBOLDA SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING MUQOBIL STRATEGIYASI.
2. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17680612>
3. Халилов Сирожиддин Шерали ўғли. (2025, November 14). ТУРИЗМ СОҲАСИ УЧУН ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ.
4. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17610859>

5. Сайфутдинов, Ш. С. (2021). Гастрономический туризм как фактор устойчивого развития туризма в Узбекистане. In *Инновационные технологии управления и стратегии территориального развития туризма и сферы гостеприимства* (pp. 666-673).
6. Sultonovich, S. S., & Kulshreshtha, S. (2019). The main directions of development of international tourism in Uzbekistan. *International Journal of Tourism & Travel*, 12.
7. Sh, Y. S. (2025). Innovative approaches to sustainable textile production and services. *Manuscript on the Sustainable Economics, Finance and Management*, 2(5), 80-85.
8. Abdullayevich, X. U., & Shukrullayevich, Y. S. (2026, May). IMPROVING ECONOMIC MECHANISMS FOR EFFICIENT RESOURCE UTILIZATION IN CONSTRUCTION ENTERPRISES. In *International Congress on Economics, Management and Business Studies* (Vol. 1, No. 4, pp. 204-209).
9. Бердиёров, Б. С. (2026). ПРИМЕНЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ ЭКОТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Asian journal of multidisciplinary research*, 3(10), 41-47.
10. Sodiqovich, B. B. (2025). O 'ZBEKISTON SHAROITIDA EKOLOGIK TURIZMI BARQAROR RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINING TAKOMILLASHTIRISH YO 'LLARI. *Modern education and development*, 36(1), 354-358.
11. Dostonbek, T. D. (2026). Push and Pull Motivations for Participation in Adventure Tourism: Foreign Tourist Perspectives. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 7(1), 436-445.
12. Dostonbek, T. (2024). A REVIEW OF THEORETICAL BACKGROUND OF ADVENTURE TOURISM AND ITS DEVELOPMENT. *concern*, 2(6).
13. Tilovmurodov, D. (2024). Imkoniyati cheklanganlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari. *GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT*, 2(1). https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss1/a823
14. Мусаева, С. (2023). Инновационные тенденции применения умных технологий в развитии туризма и гостиничного бизнеса. *Green Economy and Development*, 1(10), 662820.
15. Abdivaxitovna, S. (2023). INNOVATIVE TENDENCIES OF TOURISM AND HOTEL BUSINESS DEVELOPMENT IN GLOBALIZATION. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (7 (19)), 305-314.
16. Ro'ziqulova Mahliyo G'ayratovna. (2026). EXTREME TOURISM AND SAFETY ISSUES. TA'LIM FIDOYILARI.
17. <https://doi.org/10.5281/zenodo.19664848>
18. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.

19. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.
20. Abduraimova, N., Sharopova, N., Khujaev, M., Sapayev, V., Fattoyeva, O., & Yusufov, S. (2025). Economic development through analysis of the education and entrepreneurship impacts. *Economic Annals-XXI/Ekonomičnij Časopis-XXI*, 214(3/4), 84.
21. Isoxonovich, M. X. (2022). Middle Ages Movarounnahr Rulers in the Views OF Researchers. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(6), 134-136.
22. Xujayev, M. I. (2018). THE COVERAGE OF THE PROBLEM OF NATIONALITY AND ITS ROLE ON THE PRESENT DAY IN AHMAD ZAKI VALADI'S WORK. *Мировая наука*, (6 (15)), 61-63.
23. Хужаев, М. И. (2018). АҲМАД ЗАКИ ВАЛИДИЙНИНГ ДИНИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 177-182).
24. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239